


O'zDSMI hududida ko'kalamzorlashtirish, obodonlashtirish ishlari



O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori Ibrohim Yo'ldoshevning tashabbusi bilan bahorning iliq kelgan har bir kunidan unumli foydalanib, institut hududida ko'kalamzorlashtirish, obodonlashtirish ishlari olib borilmoqda.



Dekan, dekan o‘rinbosarlari, kafedra mudirlari, professor-o‘qituvchilar, institutni barcha xodimlari tomonidan turli gul ko‘chatlari, manzarali daraxtlar keltirilib ekilyapti. Teatr san‘ati fakulteti “Musiqali, dramatik teatr va kino san‘ati” kafedrasi tashabbusi bilan “Salviya”, “Begunya”, “Surfinya” singari noyob gullar, “Faynek palmasi” manzarali ko‘chatlari o‘tqazildi. Xalq ijodiyoti fakulteti “Folklor va etnografiya” kafedrasi tashabbusi bilan “Pitunya” gullari ekildi.



Kutubxona-axborot faoliyati fakulteti jamoasi esa pakana atirgul navlarini o'tqazib institut hududiga o'zgacha guzallik bag'ishlashni lozim topishibdi. "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasini tomonidan institut hovlisiga kirish joyi va O'zbekiston xalq shoiri "Muhammad Yusuf" nomi bilan ataluvchi ko'shk oldiga turli noyob gullar ekildi. Kino, televideniye va radio san'ati fakulteti tomonidan landshaft dizayni asosida yaratilgan manzara o'ziga xosligi bilan ajralib turibdi.



Ko'ngillari go'zallikka oshufta O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rahbariyati, ahil jamoasining maqsadi-o'zlari faoliyat olib borayotgan shu maqaddas maskanni gulzor, chamanzorga aylantirish. Bu yerga tashrif buyurgan har bir kishini ushbu estetik go'zallikdan zavq olishi, kayfiyatini ko'tarishlariga o'z hissalarini qo'shish.

Matbuot kotibi